

BACHADON TANASI SARATONIGA SABAB BO'LUVCHI XAVF OMILLARI

Latifjonova Gulnoza Erkinjon qizi

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Umumiy onkologiya 1-kurs magistri

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bachadon tanasi saratoniga sabab bo'luvchi xavfli omillar, ularning kelib chiqish sabablari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bugungi kundagi ayollar jinsiy a'zolari xavfli o'smalari orasida kasallanish sabablari ortishi hamda ularni oldini olish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются факторы риска и причины рака матки. Также приведены причины роста заболеваемости злокачественными новообразованиями женских половых органов на сегодняшний день, а также рекомендации по их профилактике.

ABSTRACT

This article discusses the risk factors and causes of uterine cancer. Also, the reasons for the increase in the incidence of malignant tumors of the female genital organs today, as well as recommendations for their prevention, are given.

Bachadon tanasi saratoni – bachadon tanasi shilliq qavatidan (endometriy) kelib chiqadigan yomon sifatli o'sma.

Hozirgi vaqtda bachadon tanasi saratoni bilan kasallanish tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda ayollar jinsiy a'zolari xavfli o'smalari orasida bachadon tanasi saratoni bilan kasallanish uchrash chastotasi bo'yicha rivojlangan davlatlarda birinchi o'rinda, rivojlanayotgan davlatlarda esa ikkinchi o'rinda turadi. Amerika Qo'shma Shtatlarida 2015-yilda 54800dan ortiq kasallanish qayd etilgan bo'lib, shulardan 10500 nafar bemor hayotdan ko'z yumgan.

Rossiya Federatsiyasida esa har yili 21000dan ortiq bachadon tanasi saratoni bilan kasallangan bemor ro'yxatga olinib, ayollar jinsiy a'zolari xavfli o'smalari orasida uchrash chastotasi bo'yicha ikkinchi o'rinni, o'lim ko'rsatkichi bo'yicha esa to'qqizinchi o'rinni egallaydi. O'rtacha kasallanish yoshga ko'ra 62 yoshni tashkil etadi. Kasallanish 40dan 54yoshgacha bo'lgan ayollar o'rtasida sut bezi saratoni va

bachadon bo'yni saratonidan keyin uchinchi o'rinda (8,8%), 55dan 69 yoshgacha ayollar o'rtasida esa ikkinch o'rinda (10,3%) turadi. 80% dan ortiq bemorlarda kasallik 1-2 bosqichlarda aniqlanadi.

Bachadon tanasi saratonining kelib chiqishining aniq sabablari aniqlanmagan. Lekin kasallikni kelib chiqishiga sabab bo'luvchi xaf omillari mavjud.

- Endogen omillar :

* semizlik – normal tana vaznining 25 kg ortiqligi kasallanish xavfini 2-3 barobar ortishiga sabab bo'ladi.

* bepushlik – kasallanish xavfi tuqqan ayollarga nisbatan 2-3 barobar ortishiga sabab bo'ladi.

* kech menopauza

* erta menarxe

* anamnezda abort bo'lganlik

* 55 yoshdan yuqori yosh

- Giperesterogeniya

* esterogenlar bilan o'rin bosuvchi gormonal terapiya yoki endogen giperproduksiyasi

* semizlik (esterogen ishlab chiqaruvchi yog' hujayralari ortiqliga)

- Boshqa kasalliklar bilan birga (sut bezi, yo'g'on ichak, tuxumdon saratoni, qanli diabet, gipertoniya, ateroskleroz, buyrak usti bezi kasalliklari)

* sut bezi saratoni kasallanish xavfini 2-3 barobar oshiradi.

* irsiy nopolipoz yo'g'on ichak saratoni (5% holatlarda bachadon tanasi saratoniga sabab bo'ladi

* metabolik sindrom

- Kasallik kelib chiqishi 5% holatlardagina irsiy omillarga bog'liq.

Yuqorida keltirilgan holatlar organizmda moddalar almashinuvi va endokrin tizimning o'zgarishiga sabab bo'lib, bu esa o'z navbatida reproduktiv tizimda buzilishlarga sabab bo'ladi. Bundan tashqari gen mutatsiyalari, immun tizimdagi o'zgarishlar ham kasallik rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Bachadon tanasi saratonining 2ta patogenetik turi farqlanadi.

1- Gormonga bog'liq tip. 60-70% holatlarda uchraydi. Kasallik asosan 50 yoshdan yuqori ayollarda kuzatiladi. Bu tip 2-tipdan giperesterogeniya va endometriy giperplaziyasi fonida rivojlanishi bilan farqlanadi. Ushbu bemorlarda asosan semizlik, qandli diabet, gipertoniya kasalligi, ba'zan esterogen sekretsialovchi tuxumdonlar o'smasi yoki tuxumdonlar sklerokistoz sindromi yondosh kasallik sifatida uchraydi. Anamnezda anovulyator bachadondan qon ketishi kuzatiladi. Nisbatan yaxshi prognozga ega.

2- Avtonom tip. 30-40% holatlarda uchraydi. Kasallik asosan 50 yoshgacha bo'lgan ayollarda kuzatiladi. Ushbu tip giperestrogeniyasiz endometriy atrofiyasi fonida rivojlanadi. Menstrual siklda o'zgarish kuzatilmaydi. Nisbatan yomon prognozga ega.

XULOSA

Sog'lom turmush tarziga rioya qilish, uzoq vaqt gormonal preparatlar qabul qilish davomida ayol organizmdagi o'zgarishlarni kuzatib borish, jinsiy organlar kasalliklarini o'z vaqtida aniqlash va davolash bachadon tanasi saratonining kelib chiqishini bir muncha oldini oladi. Asosiysi, bir yilda ikki marta profilaktika uchun ginekolog ko'ruvida bo'lish kasallik rivojlanishini va asoratlarini oldini oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Ashrafyan L. A. Opuxoli reproduktivnyx organov (etiologiya, patogenez) / L.A. Ashrafyan, V.I. Kisilev. Moskva 2007
2. Klinicheskie rekomendatsii Rak tela matki. 2018 Utverjdeny Minzdravom RF.
3. Kozachenko V. P. Klinicheskaya onkoginekologiya. Moskva 2016
4. Murodxujaev N. K., Xudoykulov T.K., Juraev M. D. Onkologiya : darslik. Toshkent 2002.
5. Chissov V. I. , Davidov M. I. Onkologiya. Natsionalnoye rukovodstvo. Moskva 2017.